



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol.5 Issue 01 | pp.35-39 | ISSN:2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MINTAQADA TURIZM INFRAUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH



**Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi,**  
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm infratuzilmasining rivojlanishi ahamiyati, o'ziga xos mavjud imkoniyatlari va uni samarali amalga oshirishda tashkiliy mexanizmlarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье освещена важность развития туристической инфраструктуры, ее уникальные возможности и особенности формирования организационных механизмов ее эффективной реализации.

**Abstract.** This article highlights the importance of tourism infrastructure development, its specific existing opportunities, and the specific aspects of forming organizational mechanisms for its effective implementation.

**Kalit so'zlar.** Turizm, infratuzilma, turizm infratuzilmasi, mexanizm, turistik obyekt, korxonona.

**Ключевые слова.** Туризм, инфраструктура, туристическая инфраструктура, механизм, туристический объект, предприятие.

**Key words:** Tourism, infrastructure, tourism infrastructure, mechanism, tourist facility, enterprise.

**Kirish.** Turizm sohasining rivojlanishi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki, turizm sohasining rivojlanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishiga olib keladi va daromadlarning ko'payishiga ham bevosita hissa qo'shadi. Bu borada mamlakatimiz hududlarida yangi turizm industriyasi ob'ektlarini ko'paytirish orqali qulay sayohat qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jahon bozorida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, ichki turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish, transport logistikasidagi mavjud muammolarni hal etish, shuningdek, sohaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-102-son Farmoni [1] qabul qilindi. Ular bilan birga, xorijiy rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda so'nggi yillarda ishlab chiqarishdan tashqari sohalar ijtimoiy mehnat taqsimotida asosiy sohalarga aylanganini kuzatish mumkin. Xususan, hozirda jahon bo'yicha jami 195 million nafardan ortiq kishi turizmda ishlaydi. Bu esa jahondagi band aholi sonining

taxminan 8 foizini tashkil etadi [2]. Shunday ekan, turizmning istiqboli va imkoniyatlari har bir hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uning mexanizmiga bog'liq bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni amalga oshirishda tashkiliy mexanizmlarni shakllantirish yuzasidan turli tahlillar olib borilgan.

Avvalo, mamlakatimizda keng ko'lamli turizm va turizm industriyasini rivojlantirish kelajakda yanada yuksalishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Bu boradagi tadqiqotlarga asosan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish yo'li bo'lib mamlakatning turistik salohiyatidan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, M.Q.Pardayev va H.M.Musayev tadqiqotlarida xizmatlar va turizm sohasining rivojlanishi, jumladan, infratuzilmaning ahamiyati va uning tashkil etishdagi tashkiliy ta'minot mexanizmlari yoritilgan. Ya'ni, turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zarurdir [3].

A.S.Kovalev o'z tadqiqotlarida turizm infratuzilmasini shakllantirishning iqtisodiy asoslari va rejalashtirishning ahamiyati tahlil qilingan. Muallif mintaqaviy rivojlanishni ta'minlash uchun infratuzilmaning uzviy mexanizmlarini ishlab chiqishni taklif qiladi [4].

J.S.Henderson tadqiqotlarida turistik yo'nalishlarni rivojlantirish va boshqarish masalalari ko'rib chiqilgan [5]. Xususan, uning tadqiqotlarida infratuzilma rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirlari o'rganilgan.

Mazkur tadqiqotlar bilan birgalikda, OECD hisobotining mazmuni turizm siyosati va infratuzilmani yaxshilash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, hisobot tarkibida mintaqaviy turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan [6].

Turizm infratuzilmasi va uning tashkiliy mexanizmlarini rivojlanishi bo'yicha adabiyotlar tahlili ushbu sohadagi ilmiy va amaliy yondashuvlarni o'rganish, muammolarni aniqlash va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Xorazm mintaqasi O'zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosi, milliy an'analari va noyob tabiiy resurslari bilan ajralib turadi. Ushbu hududda turizmni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, madaniy merosni saqlash, yangi ish o'rinlari yaratish va hududning xalqaro maydondagi imijini oshirish uchun ham ahamiyatli bo'lib qaraladi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish turizm sohasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik imkoniyatlarni kengaytirishga yo'naltirilgan infratuzilma obyektlarini rejalashtirish, qurish, modernizatsiya qilish va boshqarish jarayonlarini anglatadi. Ushbu kategoriya keng ma'noda turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslar, xizmatlar va texnik tuzilmalarning yaxlit tizimini tashkil etishni qamrab oladi. Shunga asosan, viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur omillar respublikamizda yetarli darajada mavjudligi va rivojlanganligini ko'rsatish mumkin. Xususan, qadimiy va tarixiy qadamjolar ko'pligi, milliy urf-odat va an'analarga boyligi va

saqlanib kelinyotganligi, o'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi, eng asosiysi respublikamizning Buyuk Ipak yo'li markazida joylashganligi kabi omillar viloyatda turizmni rivojlantirish uchun motiv vazifasini bajaradi va ma'lum darajada turizm infratuzilmasi tashkiliy mexanizmlarini shakllanayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatining ahamiyati, shuningdek, hududda turizmni rivojlantirishga davlat e'tiborining mamlakatimiz turizm sohasidagi o'rnini oshirishdagi alohida o'rin tutadi. Bu hududning turizm salohiyatini kengaytirish va baholash asosida tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini oshirish masalalariga e'tibor qaratishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, Xiva shahri boy tarixiy va madaniy salohiyatga ega bo'lib, uning 3000 yillik tarixiga oid 300 dan ortiq tarixiy va madaniy yodgorliklari mavjud. Xorazm viloyatida 208 ta madaniy meros obekti mavjud bo'lib, ular orasida 20 ta arxeologik yodgorlik, 124 ta tarixiy va me'moriy obida, 7 ta ansambl, 28 ta diqqatga sazovor joylar va ibodatxonalar mavjud. Bundan tashqari, hududning tabiiy va iqlimiy sharoitlari yilning ma'lum davrlarida doimiy turistik mavsumni ta'minlash imkonini beradi [7].

Xorazm viloyati mintaqasida tashkiliy mexanizmlar sifatida turizmni rivojlantirish dasturi turizm sohasida kamroq tajribaga ega bo'lgan davlat va xususiy sektorlar uchun ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalarga ega bo'lish imkonini beradi. Ushbu dastur orqali turizmning turli xil bevosita va bilvosita iqtisodiy foydalariga erishish mumkin. Mukammal ishlangan turizm rejasi diqqatga sazovor joylar, obektlar va infratuzilmani rivojlantirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlariga erishish vositasi bo'lib hisoblanadi. Bu esa viloyatda turizm sohasi infratuzilmasini tarkibini isloh qilishni taqozo qiladi. Viloyatda turizm infratuzilmasini shakllanishi mamlakatlar iqtisodiyotining taraqqiyoti bilan bog'liq. Ushbu infratuzilma sohasi jahonning uchinchi ko'p daromad keltirayotgan sohasiga aylandi. Ushbu tarmoq bilan bog'liq viloyatda turizm industriyasi sohasi dinamik ravishda rivojlanayotgan savdo turi bo'lib hisoblanadi.

Darhaqiqat, mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini shakllantirish turizm tarmog'ida bo'ladigan munosabat va hodisalar yaxlitligiga asoslanadi. Shu orqali tashkiliy mexanizm orqali tashqi muhit bilan o'zaro aloqa qiluvchi tashkilot va hududlarni o'z ichiga oluvchi munosabatlar amalga oshiriladi. Shunga asosan, mintaqada turizm infratuzilmasi tarkibiga esa turizm tashkilotlari, turistlarga sayohat uchun mo'ljallangan joylar, mehmonxonalar, ovqatlanish tarmoqlari, transport, yo'llar va turizm bo'yicha mutaxassislar majmuasi kiradi.

Fikrimizcha, mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini shakllantirish bir butun jarayon sifatida tarqibiy qismlarga ega bo'ladi (1-jadval):

**Transport tizimi:**

- Aeroportlar, temir yo‘l vokzallari, avtomobil yo‘llari, suv transporti inshootlari;

**Energetika va aloqa tarmoqlari**

- Elektr energiyasi, internet va mobil aloqa;

**Sanitariya va ekologiya tizimlari:**

- Toza suv ta‘minoti, chiqindilarni qayta ishlash va kanalizatsiya tizimlari.

**1-rasm. Turizm infratuzilmasining texnik va moddiy ta‘minoti mexanizmi**

Ushbu 1-rasmga asosan, mintaqada asosiy infratuzilmaning tarkibi turizmning texnik va moddiy bazasini tashkil etuvchi obyektlarni qamrab oladi. Ya‘ni, mintaqada turizm infratuzilmasini tashkiliy mexanizmlarini shakllantirishda quyidagi unsurlar qatnashadi:

- mehmonxona va joylashtirish tizimi-turistlarni qabul qilish va joylashtirish uchun zarur qulayliklar;
- mehmonxonalar, turistik majmualar va dam olish maskanlari;
- arzon joylashtirish obyektlari (hostellar, oilaviy mehmonxonalar va kempinglar);
- turistlarning dam olishi va madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan madaniy va rekreatsion infratuzilma;
- muzeylar, tarixiy yodgorliklar va san‘at galereyalari;
- parklar, dam olish maskanlari, sport inshootlari, plyajlar va boshqa dam olish zonalari;
- turistlarga qulaylik yaratish uchun xizmat ko‘rsatish tizimlari tarkibida axborot va xizmat ko‘rsatish tizimlari;
- turistik axborot markazlari va gid xizmatlari;
- onlayn va oflayn xaritalar, mobil ilovalar va turistik yo‘nalishlar bo‘yicha ma‘lumotlar;
- sog‘liqni saqlash, xavfsizlik va favqulodda yordam xizmatlari.

Shuningdek, barqaror rivojlanishga e‘tibor bo‘lib, turizm infratuzilmasini rivojlantirish ekologik barqarorlik va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olishni ham talab qiladi:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish;
- mahalliy biznes va jamoalarni jalb qilish;
- madaniy merosni saqlash va ekologik turizmni rivojlantirish.
- innovatsiyalar va raqamlashtirish-zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali infratuzilmani samarali boshqarish:
- aqlli shahar texnologiyalari (smart city);
- elektron to‘lov tizimlari va raqamli xizmatlar.

**Xulosa.** Mintaqada turizm infratuzilmasi tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirish orqali mahalliy va milliy iqtisodiyotga salmoqli hissa qo'shib, yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi, xalqaro hamkorlikni kuchaytiradi va mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishni ta'minlaydi. Ushbu mexanizm viloyatning ekoturizm salohiyati, tibbiy turizm, cho'l turizmi, ot va tuya sayrlar, ov turizmi hamda agro-turizm salohiyatidan samarali foydalanishga imkon beradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Xorazm viloyati va Xiva shahrida turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari va qarorlarini amalga oshirish, turizm infratuzilmasini shakllantirish, turizm xizmatlarini rivojlantirish bosqichlari va yo'nalishlari, viloyatga tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy sayyohlar soni hamda ularning hududdagi turizm xizmatlaridan qoniqish darajasiga e'tibor qaratish zarur. Ayniqsa, Xorazm viloyati va Xiva shahri turistik jozibadorligidan samarali foydalanish lozim. Buning uchun mintaqada turizm sohasini rivojlantirishni yanada tezlashtirish uchun investitsiyalarni keng jalb qilish, sohaga innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni tatbiq etish, shuningdek, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosi, resurslari va imkoniyatlaridan foydalanish talab etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-102-son Farmoni. Manba; <https://www.lex.uz/docs/7031233>
2. [www.unwto.org](http://www.unwto.org)
3. Ruzmetov B., Matyakubov U., Xudoyberganov D. Prospects of tourism development in Khorezm region: "Актуальные проблемы туризм - 2009", Республиканская конференция. - Т., 2009.
4. Professorlar M.Q va Musayev H.M. Xizmatlar va turizmni rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. - Toshkent, 2008. - 87 b.
5. Kovalev A.S. Экономические основы формирования инфраструктуры в туризме. Диссертация. - М., 2015
6. Henderson J.C. Destination Development and Management. - USA, 2017.
7. OECD hisoboti: "Tourism Trends and Policies", 2022

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

